

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONALAR VA TASHKILTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra shakllantirildi




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(2015-2020-yillar 1-mart holatiga ko'ra, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, 35 100 tani tashkil etib, ulardan 31 649 tasi yoki 90,2% faoliyat ko'satmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 998 taga yoki 16,6% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 1 320 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64 taga ko'pdir.

Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


birlik




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2015-2020-yillar 1-mart holatiga ko'ra)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, 26 816 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'satayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 050 ta, oilaviy korxonalar – 1 694 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 19 536 ta, unitar korxonalar – 188 ta, aksiyadorlik jamiyati – 37 ta va boshqalar – 311 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


(2015-2020-yillar yanvar-fevral oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiyligi sonidagi ulushi




2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 320 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 foizga o'sgan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 939 ta, xususiy korxonalar – 48 ta, oilaviy korxonalar – 286 ta, muassasalar – 19 ta va boshqalar – 28 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




01.03.2019 y.



01.03.2020 y.



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



Ishlab chiqarish sanoat

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 6 736 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,8% ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 112,3% ga (jami sanoatdagi ulushi 95,6%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 135,4% ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 105,6% ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6%) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 125,9% ga (jami sanoatdagi ulushi 2,2%) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 794 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8% ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ko'payishining asosiy omili bo'lib, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 144,1% ga (jami qurilishdagi ulushi 24,6%), fuqarolik obyektlarini qurish – 140,2% ga (jami qurilishdagi ulushi 6,4%) o'sishidir.

Binolar va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 98,2% ga (jami qurilishdagi ulushi 69,0%) kamaygan.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 503 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,6% ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 114,5% ga (jami savdodagi ulushi 65,1%), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 105,8% ga (jami savdodagi ulushi 28,1%), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 143,9% ga (jami savdodagi ulushi 6,8%) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



116
yashash bo'yicha xizmatlar




1 565
oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 681 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,9% ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 120,8% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,1%), yashash bo'yicha xizmatlarning – 2,3 martaga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,9%) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 521 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,2% ni tashkil qildi.

Jami axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonidan, nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 97,8% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,4%), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 97,0% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,3%), aloqa xizmatlarning – 84,6% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 42,2%) kamaygan.

Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 100,0% ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 5,4%) tashkil etdi. Axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 151,4% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,8%), dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 111,1% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,9%) o'sgan.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, 1 799 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 172 taga yoki 2,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 694 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 100 taga yoki 2,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 105 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 72 taga yoki 3,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, 21 232 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 092 taga yoki 123,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 536 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 937 taga yoki 117,7% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 696 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 155 taga yoki 3,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

01.03.2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


01.03.2019 y.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, 2018-2020-yillar 1-mart holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10 958 ta), Asaka (3 002 ta), Shahrixon (2 207 ta), Andijon (2 023 ta) va Qo'rg'ontep (1 566 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	314	165	149
Oltinko'l	18	13	5
Andijon	25	19	6
Baliqchi	8	2	6
Bo'ston	8	5	3
Buloqboshi	11	5	6
Jalolquduq	8	4	4
Izboskan	8	5	3
Ulug'nor	5	3	2
Qo'rg'ontep'a	8	6	2
Asaka	17	10	7
Marhamat	13	5	8
Shahrixon	24	9	15
Paxtaobod	7	3	4
Xo'jaobod	14	9	5
Andijon sh.	126	59	67
Xonobod sh.	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 126 ta (jamidagi ulushi 40,1%), Andijon 25 ta (8,0%) va Shahrixon tumanlarida 22 tani (7,1%) tashkil etgan. Eng kami Ulug'nor 5 ta (1,6%), Paxtaobod 7 ta (2,2%), Baliqchi, Bo'ston, Jalolquduq, Izboskan, Qo'rg'ontep'a tumanlarida 8 tadan (2,5%) hamda Buloqboshi tumanida 11 tani (3,5%) tashkil etadi.

Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	67	33	34
Qirg'iz Respublikasi	33	15	18
Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
Belarus Respublikasi	5	4	1
Ukraina Respublikasi	3	0	3
Ozarbayjon Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	1	0	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	0

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrdagi MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrdagi mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina Respublikasi MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,3%, Qirg'iz Respublikasi 10,5%, Qozog'iston Respublikasi 2,2%, Belarus Respublikasi 1,6%, Ukraina Respublikasi 1,0% va Ozarbayjon Respublikalarida 1,0% ga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida taqsimoti, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Andijon shahri 7 479 ta (jamidagi ulushi 38,3%), Asaka 1 450 ta (7,4%), Shahrixon 1 413 ta (7,2%), Andijon 1 305 ta (6,7%), Izboskan 916 ta (4,7%), Qo'rg'ontepa 863 ta (4,4%), Oltinko'l 846 ta (4,3%) va Xo'jaobod tumanlari 837 ta (4,3%) hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Ulug'nor 284 ta (1,5%), Bo'ston 323 ta (1,6%), Xonobod shahri 404 ta (2,1%), Buloqboshi 477 ta (2,4%), Paxtaobod 702 ta (3,6%), Jalolquduq 703 ta (3,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik korxona va mikrofirmalarning faoliyat holatlari bo'yicha tarkibi, % da




2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 26 680 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,6% ga ko'pdir. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahri (9 829 ta), Asaka (2 602 ta), Shahrixon (1 839 ta) va Andijon (1 741 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Ulug'nor (374 ta), Bo'ston (532 ta), Xonobod shahri (532 ta), Buloqboshi (681 ta), Jalolquduq (868 ta), Paxtaobod (947 ta) hamda Xo'jaobod (974 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.03.2019 yil	01.03.2020 yil
Andijon viloyati	792 250	24 035	26 816
Oltinko'l	49 201	1 269	1 180
Andijon	68 443	1 636	1 749
Baliqchi	52 241	1 200	1 208
Bo'ston	17 985	556	535
Buloqboshi	35 040	571	683
Jalolquduq	45 701	851	872
Izboskan	58 964	1 067	1 103
Ulug'nor	15 583	434	379
Qo'rg'ontep'a	54 166	1 027	1 235
Asaka	82 576	2 297	2 613
Marhamat	44 284	1 067	1 056
Shahrixon	76 354	1 557	1 843
Paxtaobod	52 754	753	952
Xo'jaobod	25 803	802	977
Andijon sh.	102 609	8 583	9 894
Xonobod sh.	10 546	365	537



* 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Asaka (93 ta), Andijon shahri (80 ta), Buloqboshi (21 ta), Bo'ston (20 ta) hamda Andijon (18 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Baliqchi (2 ta), Izboskan (2 ta), Shahrixon (7 ta), Oltinko'l (14 ta), Xonobod shahri (14 ta) va Qo'rg'ontep'a (15 ta) tumanlarda korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasidagi, vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yi 1 24-avgustdagи "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". On the left, there is a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like "Elon qilish taqimi", "Metama'lumotlar", etc. The central part of the page features a search form for "Korxona pasporti" (Company passport) with fields for "STIR kodni kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmagi kodni kiritning" (Enter stamp code), along with a QR code input field and a "Qidiruv" (Search) button.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'r alayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Tel.:74 228-29-74

